

SOHIBQIRON AMIR TEMUR SUVORIYLARI TUZILISH TARKIBI

Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi

Kunchiqar masjidi filial mudiri

Qambarov G'ayrat

va Kutubxona mudiri

Axmatov Abdullo

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buyuk Qo'mondon Amir Temurning armiyasida harbiy otliq qo'shinning tashkil qilish haqida fikr bayon etildi. va o'tmishdagi harbiy sarkardalarning otliq qo'shini haqida qisqacha bayon berildi.

Kalit so'zi: Kavaleriya, Aboz, Chingizxon lashkari, Xarb ishi ,Antik davr, Movaraunnaxr o'lkasi, Temur tuzuklar

Annotation

This article presents the idea of organizing a military cavalry unit in the army of the Great Commander Amir Temur. And a brief description of the cavalry units of past military commanders is given.

Key words: Cavalry, Aboz, Genghis Khan's army, Military affairs, Ancient period, Transoxiana, Timur's orders

Аннотация

В статье рассматривается идея создания конного подразделения в армии великого полководца Амира Темура. Дается краткая характеристика конных подразделений прошлых военачальников.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Конница, Абоз, армия Чингисхана, военное дело, античный период, Мавераннахр, приказы Тимура

Xarb tarixi sohibqiron Amir Temurning jahonning eng buyuk, sarkardalaridan biri sifatida, xaqli ravishda tan oladi Uning xarbiy iste'dodi asosan ikki yunalishda moxir xarbiy tashqilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ladi

Buyuk lashkarboshi va navator xarbiy tashkilotchi sifatida Temurbek o'ta intizomli armiya tuzishga muxoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga jang taqdiri xal buladigan joylarda xarbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yullashga xar qanday to'siq va g'ovlardan tadbirkorlik bilan bosib o'tishga armiyadagi jangovor ruxni kerakli darajada ushlab turishga muyassar buldi. Sohibqiron Amir Temur turk- mug'ul xalqlari xususan Chingizxon lashkari tuzulishini ularning jang olib borish amallarini atroflicha keng urganib taxlil qiladi va zarur uzgartirishlar kiritadi. Temurbek barpo etgan ulkan armiyaning tuzulishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bulsada

biroq quyidagi muxim jixatlari bilan farqlanadi. Chingiziylar qo'shini yalpi majburiyat asosida xarbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkaridan iborat bulgani xolda Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.

2 Chingizxon davrida qo'shinning asosiy qismini ko'chmanchi omma tashkil qilgan bulsa, Temurbek qo'shiniga oliy bosh qumondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosiblar, xunarmandlar, dexqonchilik bilan shugullangan o'troq axolidan askar olingan

3 Chingizxon xarbiy qo'shining asosiy qismi otliq askarlardan iborat bo'lib piyoda qo'shin asosan bosib olingan davlatlar axolisidan majburiy tarzda urushga jalb etilgan

4 Temurbek Sharqda birinchilardan bulib o'z armiyasida o't ochar qurollar artileriya yani tup ra'dni olib qirdi

5 Temurbek jaxon xarb san'ati tarixida birinchi bulib qo'shinni jang maydonida yetti qulga joylashtirish tartibini joriy etti. Bungacha Chingizxon o'z qo'shinini jang maydonida besh qulda joylashtirgan

6 Temurbek armiyasida safida ayollardan bo'linmalar mavjud bo'lib, ular jang paytida erkaklar bilan bir safda jang qilganlar

Temurbek qo'shini umumiy tartibi faqatgina Movaraunnaxr o'lkasi emas balki Dashti qipchoq Xuroson Eron, Badaxshon, Mo'giliston, Xorazm Mozandaron Dashti Jete sarxadlaridan yig'ilgan askarlar tashkil qilardi

Xush nima uchun Soxibqiron Amir Temur , xarbiy qo'shini bu darajada saloxiyatli, jangovorlik ruxi yuqori bo'lgan azal- azaldan Oltoydan Sharqiy Yevropagacha bo'lgan xududlarda ko'chmanchi turkiy elatlar yashab kelgan. Asrlar davomida turklar o'lgan davlatlarni bunyod etganlar. Qit'ada uzga elatlardan xarb soxasida bir qadar ustun edilar. Salkam 2 asr davom mo'g'ul istibdodi mamlakat ichidagi boshboshdoqlik xokimiyatning tez-tez uzgarib turishi xar daqiqada mamlakatda urish xarbining bulib turishi oddiy xalqning ximoyaga doimo tayyor turishga majbur etar edi.

Endilikda jaxon tarix saxnasida Temurbek boshchiligida yangi bir misli qurilmagan xarbiy quch vujudga keldi.

Dunyoning ulkan qismini fatx etgan Temurbek xarbiy qo'shinining asl kuchi bu uning otliq suvoriylarida edi. To'g'ri tarix saxnasida bir paytlar Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Sezar kabi buyuk sarkardalar utgan. Ular xam keng hajmdagi ulkan imperiyalar bunyod etishgan Xarb ishi borasida uchmas iz qoldirishgan. Lekin bu sarkardalar xarbiy qo'shinida suvoriy otliq askarlarning urni bu darajada muxim bulmagan. Antik davrdan buyon xarbiy qo'shinning muaffaqiyat qozonishiga 3 omil sababchi deb xisoblangan

1 Razvedka

2 Harbiy qo'shin

3 Artileriya

Lekin biz yuqorida tilga olgan buyuq fotixlarning xarbiy qo'shinida otliq suvoriylarning umumiy ulushi nari borsa 10 -15 foizni tashkil etar edi

Rim imperiyasi xarbiy qo'shinida zarbdor kuch kagorta va dekanatlar bulsa Aleksandr Makedonskiy xarbiy qo'shinidagi mashxur otliq falangalar jangni xal qiluvchi asosiy kuch bulsada ular son jixatdan cheklangan edi

Asrlar yillar utishi bilan ushbu xarbiy tuzilmalar xarbiy taktikasi eskira boshladi. Yevropaning mashxur ritsarlari xam turk –mug'ul suvoriylari oldida ojiz edi. Antik davrdan to xozirgi kungacha yevropalik biror-bir qirol yoki imperator xarb soxasida o'z kavaleriyasi bilan maqtana olmaydi. Yevropada tashkil topgan o'lgan imperiya va davlatlar katta xududlarni fatx etishda sharqlik aniqrog'i osiyolik fotixlar qabi maqtana olmaydi. Yevropa xarbiy tuzilmalarining xarbiy qudrati sharq fotixlarining xarbiy qudratiga xech qachon tenglasha olmagan sababi shundaki xarbiy qo'shin miqdori qanchaliq katta bulmasin qumondon qanchalik saloxiyatli bulmasin ulkan hududlarni cho'l, saxro, dala -dasht urmon tog'u-tosh xududlarini bosib utish uchun son sanoqsiz suvoriylar zarur edi.

VII asrda arab suvoriylari arabiston yarim orolidan xitoygacha bulgan xududlarni zabt etishdi keyinchalik shimoliy Afrika xududlari bosib olindi. Arab suvoriylari Yevropa qit'asining Pireniy yarim orolining Fransiyaning chegaralaridagina tuxtatildi.

XIII asrda turk -mug'ul qo'shiniga bosh bulgan Chingizxon Oltoydan Xitoygacha bulgan xududlarni zabt etib Yevropa qit'sining qoq marqaziga yetib keldi.

XIV asrda Soxibqiron Amir Temur Mugilistondan Hindistongacha Oltoydan rus yerlarigacha bulgan xududlarni istelo etdi. Bunday muaffaqiyatli xarbiy yurishlarning asl sababi xarbiy qo'shinning asosiy qismi otliq suvoriylardan iborat edi.

Xush nima uchun sharqda yevropaga qarshi ularoq ulkan qudratga ega bo'lgan kuchli armiya vujudga keldi. Buni quyidagicha obyektiv sabablari mavjud :

1 Otlarni aniqrog'i xarbiy otlarni yetishtirish uchun Osiyoda ulkan imkoniyatlar mavjud bulgan

2 Oltoydan Kaspiy buyigacha bulgan ulkan iqlimi qulay bulgan xududlarda otlarni yetishtirish va kupaytirish uchun keng xudud mavjud bulgan. Bundan bir necha ming yillar avval ko'chmanchilik bilan hayot kechirgan sak va massaget qabilalari keyinchaliq turkiy qabilalar naslli otlarni yetishtirishda faol bulganlar. Bundan tashqari mo'g'ul dashtlarida past buyli lekin qaxraton qish jazirama yoz

fasllarida uta chidamli uzoq masofaga yeta oladigan otlar yetishtirilgan Charchashni bilmaydigan badaviy arab otlarini osiyo xududlarida kurish oddiy xol edi

Miloddan avvalgi II- asrda Xitoy muarrixlari o'z asarlarida Davonning Farg'ona vodiysi samoviy otlari xaqida yozib qoldirganlar. Bundan tashqari markaziy osiyo birlashgan davlatlarining biz yuqorida keltirgan bu uchala omillar xarbiy qo'shindagi suvoriylar kuchini jang maydonlarida ko'rsatgan. Davlatlar o'rtasidagi kurash faqatgina jangu-jadal va muxorabalar bilan belgilanmagan. Xarbiy qo'shin ortida turgan oboz qismlarini ya'ni ug'ruqni muntazam yetkazib berish xarbiy qo'shin uchun oziq-ovqat, xarbiy aslaxa yetqazib berish xam katta vazifa xisoblangan. Shu soxada xam otlardan keng foydalanilgan. Dastlab Chingizxon keyinchalik Amir Temur xarbiy qo'shinida pochta kuryer ishi avvalgilarga nisbatan mukammalroq tashkil etilgan. Bosh qumondondan olingan xat yokii zamonaviy tilda aytganda depesha chopar kuryer orqali urush xarakatlari ketayotgan xududda xarbiy qismlar o'rtasida suvoriy otliq tomonidan tez fursatda yetqazilgan. Chunki xabarning tezlikda yetqazilishi jang natijasiga katta tasir ko'rsatgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishiga ko'ra Temurbekning Dashti Qipchoqqa qilingan yurishi 1390 -1391 oldidan qo'shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat qurol yarog, kiyim -kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilan ta'minlashni o'z noiblariga buyurgan. Xar bir suvoriyga bitta ot, 30 o'q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo'shimcha ot ajratilgan.

Temur tuzuklarida takidlanishicha xar bir jangchi ikkita ot, yoy, sovut, qilich, juvoldiz, qop, 10 dona igna, arra, teri xalta (chanachga) ega bulgan. Takidlash lozimki temuriylar davrida xarbiy yurishdan oldin qo'shinni ko'rikdan utkazib uning jangovor ruxi va xolatini aniqlash an'ana tusiga qirgan. Ko'rikdan nafaqat jangovor qismlar balki ular ortidan boruvchi og'ir karvon ug'ruq oboz xam utqazilgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda otliq suvoriy askarlar Temurbek armiyasining zarbdor qismi xisoblangan ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriylar guruxlarga bo'lingan. Yoy sadoq va qilich bilan yengil qurollangan suvoriylar asosan razvedka va soqchilik bilan sho'g'ullangan o'ta zarur chog'dagina dushman kuchlari bilan jang qilish xuquqiga ega bulgan. Dubulg'a zirx sovut qilich yoy sadoq qalqon va nayza bilan ta'minlangan ogir qurolli suvoriylar sara jangchilardan tuzilgan g'animning asosiy zarbasiga qarshi turgan. Temur tuzuklari va boshqa tarixga oid asarlarda Temurbek armiyasi qatnashgan shavqatsiz janglarning taktik borishi quyidagicha tasvirlangan

Qorovul

Qorovul

Xirovul xirovuli
Xirovuli buzurg manglay

Juvang'ar xirovuli	1 kator	Barangar
xirovuli		
Juvangar		
Barangar		
Juvangar xirovuli		
Barangar xirovuli		
Juvangar	2 kator	
Barang'ar		
Ittifokchilar		
Mirzolar		
	Qul (g'ul)	
	O'n ikki ming otlik qo'shin yasoli	
	Qorovul	
	Manglay	
	(Xirovul)	
Xirovul		
Xirovul		
Juvangar		
Barangar		
Shakavul	Chapavul	Shakavul
Chapavul		
	Qul (g'ul)	
Qo'shin markazi 40 bulik polkka taqsimlangan va bevosita Soxibqiron qumondonligida bo'lgan		

Temuriylar o'ltan imperiya bunyid etish yo'lida son-sanoqsiz jangu jadallar olib bordi. U uzidan oldin o'tgan Iskandar Makduniy, Chingizxon kabi buyuk fotixlarning yo'lini bosib o'tdi, mislsiz qahramonliklar ko'rsatdi. O'tgan 35 yillik zafarli yurishlar dunyo tarix saxnasida hali ham o'rganiladi. Albatta biz ushbu mavzuda Sohibqiron Amir Temurning barcha olib borgan janglarini yorita olmaymiz, lekin dunyo tarixida kirgan o'ltan janglari qisman bo'lsada yoritishga harakat qilamiz.

Temuriylar dastlab Movarounnahr o'ltasida tinchlik o'rnatib beklarning o'zoro boshboshdoqlik bilan hukmronlik qiishga chek quydi. Mamlakatning salkam 2.5 asrlik mo'g'ul istibdodidan xolos etdi. Eron, Mozandaron, Iroqi Ajamni bosib oldi. Lekin Temuriylar o'zining azaliy dushmani bo'lgan m'ogullar bilan salkam chorak asr kurash olib borishga to'g'ri keldi. Bu jangu-jadallar nainki Temurbekka g'alaba shonu-shuhrat va xalqiga tinchlik ham olib keldi. XIV asrning so'ngi choragida To'xtamishxon boshchiligida Dashti jeti m'ogullar o'ltan va qudratli davlatga aylanib boroyotgan edi. Sohibqiron Amir Temur yordamida taxtga qaytgan To'xtamishxon endilikda ochiqdan-

ochiq o'z valinematiga qarshi boradigan kuchga aylandi. Buning asli sababi shunga ediki mo'g'ul xoni To'xtamishxon xarbiy salohiyat kuch borasida Temurbek qo'shinidan kam emas edi.

Chingizxon avlodi bo'lmish To'xtamishxon son-sanoqsiz armiyasida qattiq intizom o'rnatib razvetka ishlarini a'lo darajada, qo'shinning asosiy qismi (salkam 90%) otliq askarlardan iborat bo'lib, jangavorlik ruhi yuqori darajada bo'lgan. Temurbek va To'xtamishxon o'rtasida kurash uzoq davom etdi. 1391-95 yilgacha jami 3 ta muxoraba bo'lib o'tdi. 1391- yil 18-iyun (hozirgi Rossiya federatsiyasining Orenburg) oblasti Qunduzcha Dashti yaqinda muxorabada To'xtamishxon mag'lub etildi.

2-yurish 1395-yil 15-aprel (Shimoliy Kavkaz Terek daryosi bo'yida) Temurbek 300 Ming kishilik qo'shin bilan g'alaba qozondi.

1395-yilning qahraton qishida so'ngi jangda Oltin O'rdaning yirik markazi Xojitarxon va Saroy al-jadid batomom talandi va yoqib yuborildi.

Sohibqiron Amir Temurning To'xtamishxon ustidan erishgan o'ltan g'alabasining obektiv sabablari quidagilardan iborat.

1 Xarbiy qo'shinning g'alabaga bo'lgan ishonchi

2 Amir Temur qo'shinning asosiy qismi otliqlar iborat bo'lganligi

3 Har ikki tomon harbiy tarkibi turli xil millat qo'shinlaridan aralash tarkib topgan bulsada Amir Temur armiyasida yakdillik yakunda asosiy rol o'ynadi

1391-1395- harbiy harakatlar Sohobqiron Amir Temur olib borgan eng yirik janglar iborat bo'lgan. Buning asosiy sababi Amir Temur qo'shini xarbiy yurish davomida salkam 5000 km bosib o'tgan. O'zga yurtlarda bunday olis masofada harbiy qo'shin va ovozi olib yurish biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek otliq qo'shinlar asosiy rol o'ynagan.

Bunday o'ltan jasoratni tarixda Amir Temurdan boshqa biror bir fotix yoki harbiy yo'lboshchi takrorlay olmagan. So'zimizning isboti sifatida Shu faktni ma'lum qilamizki Amir Temur vafotidan 300 yil o'tib Yevropada aniqrog'i Fransiyaning imperatori Napoleon Bonapart 1812- yil yozida Rossiya imperiyasiga urish e'lon qiladi. Jami 500 Ming kishilik qo'shinga ega bo'lgan Napoleon Bonapart bir necha g'alaba janglardan so'ng Moskva shahrini ishg'ol qiladi. Lekin Napoleon orqaga qaytishda uning harbiy yurishi qochqinga aylanadi. Imperator Napoleon Bonapart bu harbiy yurishdan o'z yurti Parijga jami 30 000 ming qo'shin bilan qaytib boradi. 1398yilda Amir Temur 90.000 kishilik armiya bilan olis Hindistonga yurish boshlaydi. Bu yurish paytida dunyoda eng baland Xindikush tog'laridan o'tish Xind zaminidagi daryo Va cho'l qalin o'rmonlar orasidan utish sersuv tez oqar daryolardan kechib o'tish qo'shin uchun yana bir imtihon. Lekin ulkan janglarda sinalgan qonli janglarda chiniqqan otliq askarlar bu vazifani hech ikkilanmasdan o'z zimmasiga oldi. Amir Temur dastlab birin ketin janglarda g'alabaga erisha boshladi. Asosiy hal qilguvchi jang poytaxt Dehli

ostonasida sodir bo'ldi. 1398-yil 17-dekabr oldingi janglardan katta yo'qotishlar bulganligi sababli Temurbek farmoni bilan Pir Muxammadga 30.000 ming ot berildi. Temurbek harbiy qo'shinga qarshi quyilgan Xind askarlari safida 120 ta fil mavjud edi. Jangavor fillar yordamida jang olib borish uslubi Temurbekka Yevropa va Osiya xarb ishlarida begona edi. Lekin Temurbekning taktik mahorati bu jangda ish berdi. Jangovor fillarga qarshi tuya va artilereyadan foydalanildi. Va nihoyat 3 kunlik qirg'inbarot janglardan so'ng poytaxt Dexli 1398-yil 20-dekabr kuni fatx etildi.

Shimoliy-g'arbiy Onaduliga O'rta Osiyodan ko'chib kelgan qabilalar asosida Saljuqiylar saltanati XIII-asrning oxirida kelib Yevropada bir qator yirik g'alabalarni qo'lga kiritdi. Endilikda Usmonli Turk davlatini boshqarayotgan sulton Yıldırım Boyazid mamlakat sarxadini kun sayin kengaytirib bormoqda edi. Uzining zafarli yurishlari bilan dong taratgan Boyazid butun Yevropoga taxlika solib quydi. Uning tezkor va shiddatli jang olib borish uslubi sabab Yevropaliklar uni tezkor: Boyazid yashindek tez deb atashardi. Bulg'oriya va Serbiyaning turklar tomonidan zabt etilishi Majoriston(Vengriya)mustaqilligining qil ustida qolishi Butun G'arbiy Yevropani taxlikaga solib quygan edi. 1396-yil 25-sentabrda Dunay daryosi o'ng qirg'og'ida joylashgan Nikopol shahri busag'asida Sulton Boyazid Yıldırım Yevropa ritsorlari 100 000 (yuz ming)kishilik armiyasi butunlay tor-mor etildi. Shiddatli xarbiy amaliyotlar Yevropani katta qismini Boyazid Yıldırım harbiy qudratining chuqqisiga bo'lgan Jahongir Temurbek maqsadlari Kichik Osiyoda to'qnash keladi

Endilikda qitada bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan shunday kuch paydo bo'ladiki ularning o'rtasida kelajakda o'lkan muxoroba bo'lishi kun sayin oydinlasha bordi. Yevropada aniqrog'i Bolqonda erishilgan bir necha g'alabalar Sulton Boyazid Yıldırımni ancha g'ururlantirib yubordi. Ikki o'rtada uzoq vaqt davom etgan diplomatik aloqalar ijobiy natija bermagach o'rtada o'lkan muxoroba bulishi muqarrar edi. Ikki tomon jami urishga zimdan tayyorgarlik kura boshladilar. Tarixchilarning guvohlik berishicha Sulton Boyazid Yeldirim adolatli, haqiqatgo'y islom olamida ijobiy ishlarni qulgan bulsada bazı masalarda shoshqaloq va uzoqni kura olmaslik sabab ancha xatoga yul quydi. Asli turk zaminidan bo'lgan Sulton Boyazidning qo'shin tuzilishi G'arbiy Yevropada tengsiz janglar olib borgan bulsa ham Amir Temur qo'shini oldida ancha kuchsiz edi. Har ikki tomom harbiy qo'shini turli xil qo'shin tuzilishiga ega edi, qo'shin tarkibida majusiylar uzoq yillar davomida janglar olib borgan. Sulton Boyazid qo'shinining asosiy qismi piyoda askarlardan iborat bo'lib uning eng ishongan asosiy kuch yanicharlarga qaratilgan. Jami 160 000 qo'shinining chorak qismi otliq suvoriylardan iborat bo'lgan. Bunga qarshi ularoq Sohibqiron Amir Temur qo'shining asosiy qismi salkam 80% otliq askarlardan iborat edi. Artileriya borasida Sulton qo'shinida Serb askarlari muvaffaqiyatli jang olib borgan bo'lsada, Amir Temur xarbiy qo'shinidagi naftando'z, manjaniqlar jang natijasiga ulkan xissa qushgan. Voqealar rivojining qizig'i shundaki Amir Temur Anqara yonida bulgan jangda

Hindistondan keltirilgan jami 39 ta jangovor fillardan foydalangan. Amir Temur Va Boyazid o'rtasidagi xal qiluvchi to'qnashuv 1402 yilning 25-iyulida Anqara shahri yonida bo'lib o'tdi. Manbalarda takidlanishicha Turk sultonining qo'shini 160 000, Sohibqiron Amir Temur 200 000 kishi atrofida qo'shin bo'lgan. Amir Temur o'z qo'shini uchun o'ta qulay pozitsiyadan hujimni boshlaydi. Erta tongda boshlangan jang tush paytida o'ta qizg'in pallada kirdi. Lekin kunning 2-yarmida Sulton Boyazid Yildirim qo'shini barcha jabhalarda jang maydonida boy bera boshladi

Kunning 2-yarmida esa Sulton qo'shini chekinishi jang maydonini tashlab qochishga olib keldi. Sulton Boyazid gvardiyasi yanicharchalar Temurbek otliq suvoriylari tomonidan yanchib tashlandi. G'arbiy Yevropada yillar davomida larzaga solgan Sulton armiyasi Temurbekning birgina zarbasiga dosh bera olmadı. Anqara shaxri yaqinda buyuk jang asl g'oliblari biz yuqorida tilga olgan yengilmas otliqlar edi. Ushbu g'alaba tufayli Amir Temur harbiy qo'shini qitada tengsiz ekanligi amalda isbot etdi. Afsusku bu harbiy yurish Amir Temurning eng so'ngi zafarli yurishlaridan biri bo'lib qoldi. 1404-yilda Amir Temur 200 000 qo'shin bilan Xitoy sarxadlari sarı yul oldi. Afsusku 1404 18-avgustda O'tror shahri yaqinida kutilmaganda Amir Temur olamdan o'tdi va bu harbiy yurish oxiriga yetmadi. Qo'shin orqaga yani Samarqand shahriga qaytishga majbur bo'ldi.

Muarrix Mirxondning " Ravzat us-Safo "asarida shuni ma'lum qiladiki 1404-yilda Sohibqiron armiyasining umimiy soni 800 000 suvoriy va piyodalardan iborat bo'lgan. Amir Temurning dunyo tarixi saxnasida uzidayoq o'chmas iz qoldirdi. Harbiy mahoratli qo'shin tuzish, jang olib borish soxasida o'lgan muvaffaqiyatlarda erishdi. Amir Temurdan so'ng biror bir fotix uning yutuqlarini takrorlay olmadı. Dunyo xarb tarixi sahifarida hali ham Temurbekning zafarli yurishlari o'rganiladi. Bir so'z bilan aytganda Amir Temur otliqlari o'tmish va kelajakning eng buyuk qo'shini sifatida tarixda kirgan. Amir Temur vafotidan song qancha zamonlar o'tdi.

Foydalangan adabiyotlar ruyhati

1. Ajdodlarimizning harbiy mahorati. Xamidulla Dadaboev. Toshkent. Akadem nashr 2016 yil
2. Amir Temurning 12 tuzugi. Toshkent. "Yangı nashr" 2017 yil.
3. Mening jonajon tarixim G.A. Xidoyatov Toshkent O'qituvchi 1992 yil
4. Самарканд при Темуре и Тимуридов Очерк Л. Й.Якубовского 1933 г
5. Муминов И.М Рол и место Амира Темура в истории Средний Азии. Тошкент. 1986 г.
6. Греков Б.Д Якубовиский Й. А Олтин Урда
7. Иванин М.И О военном искусстве Изд.1965 г .Москва
8. Ибн Арабшох Ажойиб ал- макдур фи Тарихи Таймур. Тошкент 1992 (мехнат)